UYCHI TUMAN SAYLOV KOMISSIYASI
QARORI

UYCHI TUMANIi , HURRIYAT MFY, A.TEMUR ko'chasi, 17-uy

23-son **2026-yil 29-yanvar**

Uychi tuman Kengashi deputatligiga nomzodlarning va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20^1 -, 44- va 48-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 2-iyuldagi 1345-son qaroriga muvofiq, Uychi saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 2-iyuldagi 1345-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashida saylov o‘tkazuvchi 20-Boyog’on saylov okrugida bo‘shab qolgan deputat o‘rni saylovi bo‘yicha deputatlikka nomzodlarning va siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti 2026-yil 30-yanvardan boshlanishi e’lon qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Bo‘shab qolgan Xalq deputatlari Uychi tuman Kengashi deputati saylovi bo‘yicha siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tashviqotini olib borish uchun saylovoldi tashviqoti davrida:

Namangan viloyati televideniyesi, viloyat radiosida ajratiladigan efir vaqti va hajmi 1a-, 1b-ilovalarga muvofiq;

“Uychinoma” gazetasida bepul ajratiladigan nashr maydoni, vaqti va hajmi 2a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Saylovoldi tashviqoti davrida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlari siyosiy partiyalarga Uychi tuman saylov komissiyasi tomonidan saylovda ishtirok etishi uchun ijozat berilgan navbatini inobatga olib, quyidagi tartibda amalga oshirilsin:

birinchi – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi;

ikkinchi – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati–O‘zbekiston liberal–demokratik partiyasi;

uchinchi – O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi;

to‘rtinchi – O‘zbekiston “Adolat” sotsial–demokratik partiyasi;

beshinchi – O‘zbekiston Ekologik partiyasi;

5. Ommaviy axborot vositalari saylovoldi tashviqoti davrida:

ajratiladigan efir vaqti va nashr maydoni doirasida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarga zarur shart – sharoitlar yaratsin;

yangiliklar dasturlarida va boshqa axborot materiallarida siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning saylovoldi tadbirlarini yoritishda tenglik prinsipiga rioya qilsin;

bepul ajratilgan efir vaqti va nashr maydoni doirasida efirga uzatilayotgan hamda chop etilayotgan saylovoldi tashviqoti materiallarini ular saylovoldi tashviqoti materiallari ekanligini qayd etib borsin.

6. Davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkinligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. **Uychi tuman** Ichki ishlar bo‘limi, Milliy gvardiya tumani bo‘limi siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlar, shuningdek, ularning ishonchli vakillarining saylovoldi tashviqoti bilan bog‘liq ommaviy tadbirlar o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Deputatlikka nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, siyosiy partiyalar va ularning vakillari saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish uchun jihozlangan xonalarni bepul ajratish, zarur ma‘lumot va axborot materiallari bilan ta‘minlashni so‘rab davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat birlashmalariga, shuningdek, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga murojaat qilishga haqli ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

9. Mazkur qaror tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

10. Ushbu qaror Uychi tuman saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin hamda tegishli manfaatdor tashkilotlarga yuborilsin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Uychi tuman saylov komissiyasi raisining o‘rinbosari M.Ergasheva zimmasiga yuklansin.

Uychi tuman saylov komissiyasi raisi : **K.Boltibayev**

UYCHI TUMAN SAYLOV KOMISSIYASI